



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Matyakupov Sa'dulla Gaipovich

*Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi. E-mail: matyakupov77@mail.ru*

SHE'RIYATDA RITORIK MUNOSABAT VA DIALOGIZM

Annotatsiya: maqolada she'riyatda dialog yaratish hamda uning vujudga kilish omillari, lirik va dramatik tasvir sintezi, badiiy ifoda shakllari, ijodkor badiiy mahorati masalalari tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: lirika, dialog, monolog, lirik tasvir, dramatik tasvir badiiy ifoda.

РИТОРИЧЕСКАЯ ОТНОШЕНИЕ И ДИАЛОГИЗМ В ПОЭЗИИ

Аннотация: лирика, диалог, монолог, лирическое описание, драматическое описание, художественное сознание.

Ключевые слова: в данной статье рассматриваются вопросы создания диалога в поэзии и условия его появления, синтез лирического и драматического описания, формы литературной выразительности и литературная способность создателя.

RHETORICAL ATTITUDE AND DIALOGISM IN POETRY

Annotation: This article deals with the issues of creating a dialogue in poetry and the ways of its appearance, synthesis of lyric and dramatic description, types of literary expression and the skills of a creator.

Keywords: Lyrics, dialogue, monologue, lyric description, dramatic description, literary mind.

Kirish (Introduction). Jahon adabiyotshunosligi nazariyasida tushuncha, dunyoqarash va aloqa yaxlitligini anglash, falsafa, ruhiyat hamda tafakkurni bog‘lovchi nutq shaklini belgilash, munosabat maqsad va vazifasini aniqlash, badiiy muloqot asosiy yo‘nalishlarini ochib berish hamda rivoya texnikasi estetik mohiyatini yoritish bo‘yicha boy tajriba to‘plangan. Binobarin, lirikada dialog va uning badiiy vazifasini asoslash, muammoni nazariy qonuniyatlar asnosida baholash va badiiy tafakkur mohiyatini oydinlashtirish muayyan ilmiy ehtiyoj zaruratini yuzaga keltiradi.

Dunyo adabiyotida tafakkurda shakllanadigan monologlashgan ifoda dialog hamda jonli so‘zlashuv uslubiga mansublik kasb etishi ma‘lum. Darhaqiqat, ayni shu jarayonda tavsifiy bayon ustuvorlashadi, shuningdek, she‘r tili va ijod ruhiyati hamda matn umumiy mohiyati orasida aloqa vazifasini bajaradigan shoir subyektida o‘zga bir mohiyat (shaxsiy kechinma va umumiy kayfiyat, lirik ifoda va ritorik munosabat) raqobati kuzatiladi. Mazkur jarayonda ijodkorlarning dialogdan foydalanish mahorati, adabiy pozitsiyasi, ifoda mazmun-mohiyatini anglashda tahliliy imkoniyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O‘zbek she‘riyatining turli qirralari, xususan, badiiy psixologizm, obraz va ritm munosabati, hayotni poetik talqin etish taomillari, badiiy xususiyatlari, ijodkor shaxsiyati va lirik qahramon, xalqona poetik tafakkur, uslubiy izlanishlar, modern she‘riyati poetikasi, she‘riy turkum tabiati kabi masalalar haqida dissertatsiyalari yaratildi. Ammo o‘zbek adabiyotshunosligida she‘riyatda dialog va uning talqin xususiyatlari borasida hozirga qadar yirik ilmiy tadqiqot bajarilmagan. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov tomonidan A.Navoiy lirikasida g‘azallar-muloqot shakllari bo‘yicha e‘lon qilingan maqolada janr tabiati hamda muloqotning vujudga kelish omillari ilmiy tahlil qilinadi [9.8-12]. Shuningdek, professor H.Boltaboyevning “XX asr adabiyotshunosligida dialogizm va Mixail Baxtinning adabiy-estetik ta‘limoti” [1.8-14], A.Qozixo‘jayevning “G‘azalning serovoz olami” [11.4] maqolalarida dialogning tarxiy tadriji, xususan, nazmda tutgan o‘rni ilmiy-nazariy asoslanadi. Shu ma‘noda, zamonaviy she‘riyatda dialoglarning qo‘llanishi hamda uning ilmiy-nazariy asoslarini yoritish bugungi adabiyotshunosligimiz oldidagi muhim vazifalardan biridir. Zero, dialog badiiy ijod nazariyasi va psixologiyasining eng muhim omili sanaladi. Badiiy asar qaysi tur va janrga oid bo‘lmasin unda, asosan, ijodkorning olam va odam bilan muloqoti badiiy in‘ikos etiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). She‘riy idrokda dialog tushuncha poetik mohiyatini ochib beradigan asosiy estetik vosita, badiiy muloqot so‘z – g‘oya – matnni anglash uchun tayanch markaz vazifasini o‘taydi. Munosabat hamda talqin esa lirik ifoda tabiatini belgilaydi. Unda muallif va qahramon, tasavvur va taassurot bir-biriga qorishadi. Mazkur jarayon professor H.Boltaboyevning “XX asr

adabiyotshunosligida dialogizm va Mixail Baxtinning adabiy-estetika ta'limoti" maqolasida keng ilmiy-nazariy asoslangan holda shunday munosabat bildiriladi: "M.Baxtin tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan dialogiyaviylik (диалогичность) termini ham mavjud bo'lib, bu tushuncha turli nuqtayi nazarlar kurashini ifoda qiluvchi asarning badiiy konsepsiyasidirki, uning yetkazuvchisi bevosita asar muallifining o'zi, lirik qahramon (yoki bayonchi) va personajlardir... Dialogizm taraqqiyotiga xizmat qilgan mana shu adabiy suhbatnavislikni M.Baxtin o'z ishlarida, xususan, F.Dostoyevskiy romanlarida kuzatgan.... Demak, badiiy matnda dialogizm muallif va personajlarning fikrlash tipi bo'lib, badiiy nutqiy shaklda kommunikativ (muloqotiy) qurilma vazifasini bajaradi, inson ongini shaxslararo muloqotga olib kiradi" [1.10].

She'riyatda ijodkor ichki olamining qay tarzda namoyon bo'lishini ifoda uslubining o'ziga xosligi vujudga keltiradi. Shu ma'noda, ijodkorning ichki hissiyot boshqaruvi va tashqi muhit bilan o'zaro muloqoti badiiy idrok imkoniyatlarini shakllantiradi. Mazkur jarayon voqelikka nisbatan munosabatli nutq sifatida (men, sen, o'zga) aks etadi. To'g'rirog'i, aniqlik va mavhumlikaro mutanosiblashgan tasvir hamda tasavvur uyg'unligini hosil qiladi. Zero, "Retsipient tomonidan matnning qabul qilinishi tarixiy, guruhiy, individual, yosh jihatlari hisobga olingan holda va vaziyatga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, matn va kitobxon dialogiga ko'ra, asarning qabul qilinishi tarixan o'zgarib turishi va turli davrlarda turlicha talqin qilinishi mumkin. Badiiy asar kitobxon bilan muloqotga kirishishi natijasida matn va retsipient bir-birini to'ldiradi, boyitadi. Bunday adabiy muloqot jarayonida adresant (muallif) bilan adresat (kitobxon) qatnashadi. Bu jarayondagi dialogiyaviylik muallif tomonidan tavsiya etilgan matnning mazmunini o'zgartirmaydi, balki uni qabul qilishning turlichaligi tufayli matn talqinida mazmunning yangi-yangi qirralari ochiladi" [1.13].

Darhaqiqat, lirikada so'zga yuklatilgan ritorik munosabat tadqiq sahniga chiqqan holda matndagi nozik tuyg'u muallif shaxsiyati va she'r ruhiyatini bir-biriga muqobillashtiradi. Aynan badiiy nutqda tasavvur va g'oya raqobatga kirishuvini inobatga olsak, mazkur masala mohiyati yanada oydinlashadi. Poetik tushunchada ma'no tarmoqlanishi tahlil malakasi ustuvorlashuviga zamin hozirlaydi. "Kishilarning til vositasida o'zaro axborot almashishini ro'yobga chiqaruvchi asosiy omillardan biri ularning ongida tayyor gap qolip (konstruksiya)larining mavjudligidir. Zero, shu qoliplarga til materialini – so'zlarni joylashtirish orqali fikr shakllantiriladi va ifoda etiladi; tanish qoliplarga tizilgan so'zlarning o'zaro munosabatlaridan kelib chiqib fikr uqiladi (tinglovchi ongida qayta shakllantiriladi). Shu singari, ongimizda tayyor adabiy asar konstruksiyalari – janr qoliplari mavjudki, ularga hayot materialini joylagan holda badiiy mazmun shakllantiriladi" [12.7].

Ta'kidlash kerakki, matn shakllanishi fikr mantiqiy taraqqiyotining muayyan bosqichidir. Nutqning tuzilishi o'z-o'zicha mustaqil ifodani hosil qilmaydi, balki u faqat uslubiy vazifadoshlikda adabiy mohiyat kasb etadi. Zero, ushbu holatda idrok taomillari bilan baholash mezonlari uyg'unlashadi. Adabiyotshunos Z.Pardayeva monografiyasida M.Baxtindan iqtibos keltirgan holda "Dostoyevskiy romanlaridagi g'oya talqini bu inson miyasida muqim joylashib olgan subyektiv individual-psixologik shakllanish emas, balki g'oya na subyektiv va na individualdir, g'oyaning "yashash" makoni muayyan bir individual ong ham emas, balki onglar o'rtasidagi dialogik muloqot doirasidir, – deb ta'riflagan" [7.134]ligini alohida e'tirof etadi. Muloqotning kechishida hayrat, zavq, taajjub, istak, murojaat va ularni anglash mohiyatan o'zaro tutashadi. To'g'rirog'i, monologlashgan dialog aloqalari tizimida tasavvur ziddiyatining (mohiyatni tasdiqlash yoki inkor etish) davomiyligi yetakchi tamoyil darajasiga ko'tariladi. "Nutq subyekti bu – nutq egasi, ya'ni muallifdir. U birinchi navbatda, o'z oldiga har qanday nutqning adresat tomonidan muvaffaqiyatli anglanishini maqsad qilib qo'yuvchi shaxs, adresantdir. Adresat matni o'qir ekan, asardan muallif yoki qandaydir bir shaxsni emas, balki asar orqali (asarning ichki struktura elementlari ma'nosidan) konkret shaxsni kashf etadi, uning ishtirokini, kechinmalarini his qiladi va u orqali asarda bayon qilingan tuyg'ularni tuyadi, lirik tasvirlarning ishtirokchisiga aylanadi, lirik kechinmalarga guvoh bo'ladi. Bu poetik obraz lirik asarlar tahlilida lirik qahramon (yoki lirik subyekt) nomi bilan ham yuritiladi" [5.54].

Ma'lumki, badiiy nutq muntazam yangilanib turadi. U an'anaviy janr tizimini buzishga va lirik ifodani o'zgacha muhokama etishga zamin yaratadi. Zero, she'riy qahramon "men"i borliqning umumlashgan ko'rinishidir. Shu ma'noda, tushuncha ma'no tabiatini ijtimoiy mohiyatga qadar yuksaltirgan holda psixologik jihatdan kuzatish va qiymatni bir-biriga tutashtiradi. Muayyan makon va zamonda gavdalanadigan tasvir miqyosi umumbashariylik kasb etadi. Bu o'rinda hayotiy-maishiy asosdan badiiy talqinga o'tish tarzi tuyg'ular nazoratini o'rnatishga imkon tug'diradi. Ong boshqaruvi esa asosiy maqsadni vujudga keltiradi.

Shu nuqtayi nazardan, dialog va monolog ifodani mantiqan kuchaytirish barobarida bir xil yo'sindagi stereotiplarga barham berishga intiladi. "Dialogizatsiya dialogiya (dialogik nutq) bilan chambarchas bog'liq, chunki dialogizatsiya o'zini dialogik nutq jarayonida namoyon qiladi. Agar dialogik nutqda dialogik elementlar qancha ko'p qo'llansa, kommunikatsiya jarayoni shuncha samarali bo'ladi. Demak, dialogik nutq ikki yoki undan ortiq shaxs (subyekt / kommunikantlar)ning o'zaro hamkorlikdagi muloqoti, ularning bir-biriga ta'siri natijasida paydo bo'ladigan nutq shaklini nazarda tutadi. Og'zaki muloqotning eng qadimiy turi bo'lgan dialogik nutq

shakli keyinchalik boshqa nutq turlari, jumladan, badiiy nutqqa ham ko‘chirildi va shu tarzda badiiy asarlarda so‘zlovchi va tinglovchi munosabatlari ta‘minlandi” [5.23].

Ta‘kidlash kerakki, nutqiy malaka ritorik munosabatni oydinlashtirish bilan cheklanmaydi, balki tasavvur mohiyatini tiniqlashtiradi. Adabiy tilning umumiy mezonlariga nisbatan qarama-qarshi munosabat hosil qiladigan badiiy muloqot tizimida so‘z g‘oyaviy mohiyat kasb etadi. Vaholanki, mavhum tushunchadan aniq obraz yaratish jarayoni ichki va tashqi uyg‘unlikni vujudga keltirishga yo‘l ochadi. Boshqacha aytganda, tasvirning sarmazmunlikka yo‘naltirilganligi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Mavjud ziddiyat badiiy nutq maydoni murakkabligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Muallif va qahramon ovozi she‘riy muhokamada inkor-tasdiq ziddiyatini sodir etadi.

“Shoir ijodida onglilik miqyosi adabiy dastur hamda davr ruhiyati doirasida kechadi. Umume’tirofdagi poetik mezonlar boshqaruvi muayyan bosqich darajasini badiiy ibtidoga aylantiradi. Agar ong, ijod matn darajasida tursa, ongsizlik (shuur, savqi tabiiy) materialni o‘zlashtirish ma‘rifatini shakllantiradi. Biroq obyektiv omillar mushtarakligi ong va ongsizlik sarhadlarini birlashtiradi. Ijodkor ijodiy izlanishi, materiya qamrovi va kelajakka payvandlangan quvvat-hofiza talqin subyektivizmini tayin etadi” [8.262], deya ta‘kidlaydi rus adabiyotshunosi M.Y.Polyakov. E’tirof etish lozimki, badiiy ong ijtimoiy yo‘naltirilganlik va estetik idrok nisbatidan oziqlanadi. Unda ijodiy jarayon hamda ijodkor ruhiyati bir-birini to‘ldiruvchi mazmun-mohiyat kasb etadi. Aynan adabiy tafakkurning ong qatlamlaridan hissiy idrokka o‘tishi nutqiy birliklar mohiyatini to‘g‘ri tushunishga zamin hozirlaydi.

Lirikada so‘zga yuklatilgan ritorik munosabat tadqiq sahniga chiqqan holda matndagi nozik tuyg‘u muallif shaxsiyati va she‘r ruhiyatini bir-biriga muqobillashtiradi. Aynan badiiy nutqda tasavvur va g‘oya raqobatga kirishuvini inobatga olsak, mazkur masala mohiyati yanada oydinlashadi. Poetik tushunchada ma‘no tarmoqlanishi tahlil malakasi ustuvorlashuviga zamin hozirlaydi.

A.Oripov ijodida falsafiy mushohadalar va o‘tkir hajviy mazmunga ega bo‘lgan turli mavzulardagi dialog asosiga qurilgan she‘rlarni uchratamiz. Xususan, shoirning “Ajrim” she‘rida ota-bolaning savol-javobi orqali insoniyat uchun eng muhim qadriyatlar sanalgan do‘stlik, vafo va sadoqat masalalari haqida mushohada yuritiladi.

Dunyoning yarmini sayr etdi o‘g‘lon,
Kelib otasidan so‘radi ajrim:
– Chin do‘st topolmadim, nega otajon?!
Ota esa jim [4.335].

She‘rda tasvirlanishicha, dunyoning yarmini aylanib chiqqan o‘g‘il o‘z otasiga “Chin do‘st topolmadim nega otajon?”, “Vafo topolmadim, nega otajon?” – deya murojaat qiladi. Ota esa bu savollarga faqat sukut saqlash, jim turishdan boshqa javob

berolmaydi. She'ning oxirgi bandida bir xil mazmunda takrorlanayotgan savollardan toqati toq bo'lgan otaning o'g'liga bergan javobi shunday tasvirlanadi:

Yana dunyo kezdi charchamay o'g'lon,

Yana otasidan so'radi ajrim:

– Vafo topolmadim nega, otajon?!

Ota hamon jim.

– Nega savolimga bermaysiz javob?!

O'g'lon turar edi nolakor, haqir.

Ota javob berdi uh tortib shu tob:

– Sen ham bor narsani axtar-da axir!.. [4.335].

She'rdagi Ota tomonidan berilgan javob insoniyat ustidan chiqarilgan qat'iy hukm-xulosa sifatida yangraydi. Lekin she'r mazmunidan kelib chiqadigan ma'no hozirgi kunda insoniy tuyg'ular butkul yo'qolib ketdi, degani emas. Shu ma'noda, she'ning birinchi misrasidagi “Dunyoning yarmini sayr etdi o'g'lon” jumlasini zamiridan har bir o'quvchi yakuniy xulosani har xil qabul qilishi mumkin. She'ning ana shu satrlarida A.Oripov ijodiga xos bo'lgan muhim bir tamoyil belgisini ko'rishimiz mumkin. Xususan, hayot hodisalarini, turmush realliklarini realistik yo'sinda ifodalash, inson fe'l-faoliyatini teran tahlil etish yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu narsa shoir ijodiy izlanishlarida ijtimoiy faollikning kuchayishini belgilash bilan barobar asarlaridagi badiiy-falsafiy ma'nolar quyuqligini ham belgilaydi.

Hayot haqiqati bilan qalb haqiqatining uyg'un sintezi, davr psixologiyasi bilan qalb manzaralarining omuxta ifodasi A.Oripov she'rlaridagi falsafiy-psixologik talqinning o'ziga xos ko'rinishidir. Ushbu tamoyilning qutlug' samarasi sifatida psixologik holatlar, kayfiyatlar silsilasidan hayotning ma'nosi, tiriklikning mohiyati xususidagi falsafiy ma'nolar kelib chiqadi. “Har qanday axborot, matn o'zining ichki struktura elementlariga ega bo'lgani kabi poetik axborot – she'riy matn ham o'zining ichki tuzilishiga ega. Aslida bu xususiyat ularning barchasi uchun umumiy, biroq she'riy matnning boshqa matnlardan farqli jihatlari talaygina. Shunday farqlardan biri – she'riy matnning o'ziga xos ritm va ohangga egaligida. She'riy intonatsiya va ritm she'riy axborotning tuzilishiga, uslubiga, shakliga ta'sir qiladi, ifoda shakllarining rang-barangligiga olib keladi va til birliklarining semantikasi hamda vazifasida o'zgarishlar yuz beradi. Natijada, she'riy nutq – poetik matn (axborot) san'at tili, poetik til darajasiga ko'tariladi” [5.8]. Ma'naviy-axloqiy masalalar badiiy asarlarning o'zak mag'zini belgilab beradi. Shunga ko'ra ulardagi konflikt ko'rinishlari ham insonning o'zini-o'zi yengib o'tishi, fe'l-atvoridagi mavjud illatlarini anglab yetishi va ular bilan kurashishi singari ko'rinishlarda ifoda qilingan. Bu narsa shoirlarimizning butkul diqqat-e'tibori, badiiy nigohi inson qalbiga ko'chganligidan dalolat beradi. Shu ma'noda, insonning o'z ko'nglida kechayotgan hissiyotlari tahlili orqali jamiyat

tartiblari va voqelik jarayoniga munosabat bildirish, ularni badiiy-estetik baholash hozirgi badiiy adabiyotning yetakchi tamoyillardan hisoblanadi.

Necha cho‘llar oshib, daryolar oshib,
Bir kun kirib keldi Makkaga karvon.
Dengizga yetishgan jilg‘adek shoshib,
Ummatlar yo‘l oldi Ka‘baga tomon [4.201].

A.Oripovning “Haj” she‘ri tafsilot tasviri bilan boshlanadi. Darak gap muloqot uchun vosita vazifasini o‘taydi: “Dengizga yetishgan jilg‘adek shoshib” Ka‘baga yo‘l olgan ummatlar “necha cho‘llar oshib, daryolar oshib” Makkaga kirib keladi. Maqsad-muddao musulmonchilik farzi – Haj ziyoratini amalga oshirish. Islom ahkomi qoidalari banda uchun ezgulik eshiklarini ochadi. Yaxshilik ta‘malida e‘tiqod butun va bo‘linmas, riyo, g‘araz va manfaatdan yuksakda turadigan musbat shartlarni qamraydi. Zero, odamzod shuurini Qur‘oni Karim nuri bilan to‘ldirsa, saodatga erishadi:

Ularning barchasi mo‘ysafid edi,
Asoga tayangan nuroniy boshlar.
Kimdir hayrat bilan ularga dedi:

– Hajga kelmaydimi sizlarning yoshlar? [4.201].

Mazkur she‘r tahlili xususida professor N.Rahimjonov shunday fikr bildiradi: “A.Oripov “Haj” she‘ridan keltirilgan satrlar ko‘ngil bilan bog‘liq mulohazalarimizni oydinlashtiradi. Xususan, ko‘ngil – bekaron ma‘naviy borliq. Haqqa yetishish jarayonidagi haqiqat, ezgulik, adolat, insof-diyonat, sadoqat, saxovat va h.k. ma‘naviy-axloqiy xususiyatlarni bir yo‘la o‘zida mujassamlashtiradi. Illo, Alloh taolo yorlaqagan bandalar ko‘nglidagina ushbu jarayonlar kechguchidir... A.Oripov lirik qahramoni ana shu saodat ostonasiga bosh urush uchun bir ko‘p fazilatlarga ega bo‘lish, odamdagi odamiylikni ruhoniy xislatlar bilan bezash lozim deb biladi” [6.74-75].

Ahamiyat bersak, “Kimdir” mavjud vaziyatdan hayratga tushib, savol beradi: Hajga kelmaydimi sizlarning yoshlar? Diniy-ma‘rifiy amal har bir muslim uchun sinov darajasini belgilaydi, inson a‘moli ranj va mashaqqatlarni yengib o‘tishi, eng muhimi katta dushman – “nafs”ni jilovlashi lozim. Shundagina shaxs ruhoniy dunyosi yuksalishga yuzlanadi. Ruh va jism pokligini asrash uning muayyan talabi hisoblanadi: “Haq yo‘li mushkul” ekanini anglagan har bir mo‘min-musulmon o‘zining sog‘lom maslagi uchun ayovsiz kurashga kirishadi:

Ummatlar deyishdi: – Haq yo‘li mushkul,
Aziyat chekkan-ku Payg‘ambarimiz.
Qutlug‘ bu safarga olgan chog‘i yo‘l,
Yosh-yosh yigit edik bizning barimiz [4.201].

She‘riyatda dialog va monolog muvozanati estetik omildan badiiy konsepsiyaga o‘tadigan ko‘prik vazifasini bajaradi. Tasvir predmeti hamda uning ilovasi adabiy

talqin dual mohiyatini belgilaydi. Rivoya texnikasi va adabiy til kesimida shakllanadigan badiiy ifoda malakasi badiiy g'oyani tavsiflaydi. Ziddiyat hamda uyg'unlik tushunchaning muayyan ikki qirrasini bo'lib, tafakkurning dialoglashgan mazmuni esa tuyg'u idrok sezgisini mantiqan asoslaydi. Aniqrog'i, aql va imkoniyat murosaga kelishi ijodkor subyektiv munosabati hosil bo'lishiga zamin hozirlaydi. Unda so'z va tasvir, tushuncha va tasavvur, matn va konsepsiya aloqasi badiiy nutq tipini tartibga solishga intiladi.

Adabiy talqinda lirik ifoda subyekti va tasvir obyektini bir-birini taqozo etadi. Shu sababli ijodkor pozitsiyasi bevosita hamda bilvosita hamkorlik munosabatini tavsiflaydi. Tasavvur asnosida she'riy qahramon shaxsiyati muallif dunyoqarashi bilan to'qnashadi. Natijada, dialog ifoda vositasi sifatida harakatdagi badiiy voqelikni boshqaradi. Doimiy o'zgaruvchan ma'no hodisasi aslida g'oyaviy-estetik mohiyatni aniqlashga xizmat qiladi. Unda maqsad va vazifa badiiy nutq o'ziga xosligini ta'minlagan holda muloqot shakli matn darajasini belgilab beradi. Unda so'z falsafa va mantiqni birlashtirib, poetik xususiyat hamda falsafiy umumlashmani markaziy nuqtaga ko'taradi. Talqin va tahlil o'rin almashinuvi tadqiq sahniga ko'tarilib, shakl yurishi mazmun originalligini tartibga soladi.

E.Vohidov ijodida shunday mulohazalar asosiga qurilgan dialogik she'rlar ko'plab uchraydi. Xususan, shoirning "Zamin sayyorasi" she'rida inson va zamin orasidagi dialogda juda teran falsafiy mushohadalar umumlashmasini kuzatamiz.

Yamoqchi tangriga derkan tinmayin:

– Ey Xudo!

Menga ham bir qayrilib boq!

Chorig'ing so'kilsa, tikib berayin,

Kavushing teshilsa,

Solayin yamoq [2.75].

Erkin Vohidovning "Tangri va yamoqchi" she'ri muayyan ekspressiya uyg'otadigan dialog asosiga qurilgan. Munosabatli nutq asosiy xususiyati shaxs va jamiyat aloqasini hajviy ruhiyat realizmida ochib berishga bo'lgan mayl bilan izohlanadi. Mehnat irodasini bukkun, ijtimoiy a'mol hayotiy aqidaga aylanayozgan tutumda istak-imkoniyatlar boshqariluvini tabiiy jarayon sanaladi. Muallif kinoya vositasida abgor ahvolga tushgan kasb kishisi suvratini chizadi. "Ey xudo! Menga ham bir qayrilib boq" iltijosi bilan boshlanadigan adabiy talqinda maishiy manfaat hamda hayotiy ehtiyoj bir-biriga moslashadi. Matnda ruhiyat lirik subyekt holat va kayfiyatiga qarab o'zgaradi. Muloqot jarayoni ikki rakursda: muallif va kitobxon, inson va jamiyat kesimida kechadi: "Chorig'ing so'kilsa, tikib berayin, Kavushing teshilsa, solayin yamoq". Oramizda turmush tashvishida yashaydigan insonlar ko'plab uchraydi,

ularning talab va ehtiyoji ham o'ziga yarasha ma'no kasb etadi. Hamma qatori yashashga mahkum kimsa ehtiyoji ham haminqadar:

Tangri debdi bir kun:

– Ol boqiy umr,

Farishta bo'lursan!

– Ey, qo'y, kerakmas!

Umr berma menga, ber ozroq ko'mir,

Ustiga bir chetan

Yantoq bo'lsa, bas [2.75].

Behafsala, ojiz yamoqchi orzu-istagi kitobxonda achinish hissini uyg'otadi. Odamzod yuksak a'mollarga intilmas ekan, uning hayoti kemptik bo'lib qolaveradi. Muloqotda moddiy qaramlik tahlilga tortiladi, shuningdek, bevosita murojaat va pozitsiya ochiqligi falsafiy umumlashma teranligini ta'minlaydi. Mazmun hamda mantiq quyuk tasviri matnda ijodiy muqobil ifoda hosil qiladi. Tangri iltifoti (ol boqiy umr, farishta bo'lursan!) va rad etilgan in'om (umr berma menga, ber ozroq ko'mir, ustiga bir chetan yantoq bo'lsa, bas) qanoat andishasini tasvir sathiga chiqaradi. Ikkinchi tomondan, asar fonikasini belgilaydigan vaziyat (qahatchilik) insonni real turmush tashvishlariga bandi etadi. Dialogda tafsilotni psixologik dalolat boshqaradi, qayta ijodiy idroklangan ijtimoiy tabaqa hayoti va unga nisbatan pozitiv munosabat keyingi badda yorqinroq namoyon bo'ladi:

Tangri debdi:

– Tun-kun sajdalar qilib

Shungamidi chekkan nola-yu ohing?

Nima qilar eding menga sig'inib,

Asli

Aravakash ekan

Ilohing [2.75].

Mantiqiy yakun keskin, aniq va shafqatsiz: tun-kun sajdalar qilib, shungamidi chekkan nola-yu ohing?. Maishiy miqyosda tafakkur yuritish ayni inson uchun katta fojia, xuddi tirikchilik umr mezoni darajasida qadr topmaganidek. "Asli aravakash ekan ilohing" kesatig'i zamirida shunga ishora mavjud, illo, haqiqiy e'tiqod har qanday g'araz-manfaatdan ustuvor hamda ta'masiz bo'linmas maslakni taqozo qiladi. Zero, chorasiz ahvolga tushib qolish odamzodni jarga yetaklaydi, "qorin g'ami" uni hayvonga teng qilib qo'yadi. Shoir insonni har tomonlama bekam-u ko'st shaxs sifatida ko'rishni orzu qiladi, chunonchi, fidoyilik va noyob iqtidor inson hayotini bezaydi.

"Badiiy matnda dialogizm muallif va personajlarning fikrlash tipi bo'lib, badiiy-nutqiy shaklda kommunikativ (muloqotiy) qurilma vazifasini bajaradi, inson ongini shaxslararo muloqotga olib kiradi... M.Baxtinning fikricha, muallif MEN va O'ZGA

dialogida qatnashadi” [1.10]. Tafakkur va dunyoqarash silsilasida qayta idroklanadigan tuyg‘u o‘ziga xosligini aynan iste’dod darajasi belgilaydi. Aslida ijod falsafasi tushunchani hissiy qabul qilish va ohangni ilg‘ashni muddao qiladi. Usul xilma-xilligi hamda axborotni qabul qilish yo‘cini tafovuti tasvir ruhiyati imkoniyatlarini sharhlaydi. Shu ma’noda, ruhiyat tasvirining namoyon bo‘lishi she’riyatda ancha murakkab kechadi. Negaki, asosan oniy kechinma asosiga quriladigan lirik ifodada tahlil va talqin o‘zaro uyg‘unlashadi. Shu bilan birga yana bir muhim ta’kidlanadigan jihati shundaki, insonlarning manaviy-axloqiy fazilatlarini fikr va ko‘ngil hurriyati barcha zamonlarda barcha xalqlar uchun birdek aziz. U insoniyat tarixida benazir bashariy qadriyat bo‘lib kelgan. Chunki, adolat, ezgulik, ma’naviy go‘zallik va intellektual boylik hech qachon, hech bir zamonda irq va millat tanlamaydi. Zotan, jamiyat hayotidagi ma’naviy-axloqiy noqisliklar, illatlar har qanday rivojlanish yo‘liga g‘ov bo‘ladi. Zero, xoh ijtimoiy-iqtisodiy, xoh ma’naviy-madaniy taraqqiyot asosini insonning ruhiy komillik xususiyatlari belgilab beradi. Qachonki inson ma’nan va axloqan, intellektual jihatdan komillik xislat-fazilatlarini bilan ziynatlanmas ekan, unda milliy qadriyatlarga, ajdodlar xotirasi va merosiga nisbatan hurmat hamda ularni qadrlash hissiyoti shakllanmaydi.

Badiiy munosabatda muammo va g‘oya, shakl va mazmun, tahlil va talqin tugallik kasb etsagina, matn poetik qudratga erishadi. To‘g‘rirog‘i, muallif ifoda va tasvirni tenglashtiradi hamda hayotiy ziddiyatlar falsafiy teranligini vujudga keltiradi. Unda shoir adabiy talqini murojaat-ta’kid birikuviga yo‘l ochadi. So‘z, ma’no va tushunchani yaxlitligi asnosida ong dialoglashadi, monologda yaxlit ma’no, har bir ma’no qirrasida go‘zal ohang, yorqin rang va ruhoni tarovat ustuvorlashadi. Aynan tasavvurni tasvirga yo‘naltirish va ifodada ko‘rsatish mohiyatni ancha oydinlashtiradi.

“Badiiy asarning muhim komponentlaridan biri hisoblangan dialog o‘zining mustaqil qurilish tizimiga va qat’iy tartib-qoidalariga egadir. Dialog muallif bayoni bilan chambarchas bog‘langan holda rivojlanadi. U bayon tarkibini tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi va nutq sistemasidan xoli tarzda mavjud bo‘lolmaydi. Aksincha, tanlangan bayon tipi badiiylik shartlarini bajarishga bo‘ysundiriladi hamda dialog bilan muayyan mutanosiblikda va moslashuvda namoyon bo‘ladi. U sujetni rivojlantirish, xarakterni takomillashtirish, konfliktni keskinlashtirish, personajlarning ichki dunyosini muntazam ravishda yanada chuqurroq ochishga xizmat qiladi. Muallif bayonini tashkil etish, uning ko‘lami va qamrovini aniqlash, ta’sirchanligini oshirish ko‘p jihatdan dialoglarni qurish mahorati bilan belgilanadi” [10.48].

Har bir dunyoqarash adabiy talqinni yangicha munosabat, o‘zgacha ohang hamda nafis bo‘yoqdorlikka yo‘naltiradi. Tasdiq – inkor – tasdiq shakli o‘ziga xoslikda maromiga yetadi. Monologda ham ta’kid, ham e’tirof, ham tasdiq aks etishini inobatga olsak, ijod falsafasida mantiq aqidani tavsiflashi ayon bo‘ladi. Shoir shaxsiyatida

ijtimoiylashadigan mohiyat aslida munozara tabiatiga ega, unda tahlil malakasi tasavvur oqimiga aniqlik kiritgan holda tasvir ruhiyati ifoda uslubi shakllanishiga imkoniyat hozirlaydi:

Aql deydi:

– She’ringdan ne naf,

Mashqlaringdan lazzat olar kim?

– Yo‘q, der menga, – o‘ltirma o‘ylab,

She’r yoz, – deydi nodon yuragim [3.46].

E.Vohidovning “Yurak va aql” she’ri kontrast belgilarga asoslangan. Bir-biriga zid tushunchalar, odatda, tasvirni yorqinlashtiradi, mohiyatga aniqlashtiradi. Tazod zamiridagi munosabat harakat-holat uzluksizligini ta’minlaydi: aql “she’ringdan ne naf”, deya iddao etadi, “nodon yurak” esa aqlni inkor qiladi. Sovuqqon idrok hamisha aql bilan ish yuritishni tavsiya qiladi. Ko‘ngil amriga esa buyruq berib bo‘lmaydi. Shu tariqa hayotiy ziddiyatlar falsafiy teranligini umumlashtirgan shoir bahs-munozarani keskinlashtiradi. Ushbu satrlarda so‘z – g‘oya – matn tizimi ustuvorlashadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). She’riyatda muayyan shoir ijodida ichki muloqotda kamolot pog‘onalarini axtarayotgan inson ruhiy kechinmasi sharhlanadi. Bu holat riyozat chekish, mashaqqatlarni yengib o‘tish bilan o‘lchanadi. Ko‘ngildan sizib chiqayotgan iztirobda nurafshon kelajakka ishonch tuyg‘usi zohir. Lirik “men” va Alloh taolo orasida kechayotgan g‘oyibona suhbat aslida mohiyatni anglash hamda anglatishga xizmat qiladi. Shuningdek, lirikada tushunchalar mohiyati hamisha mavhumlikka tayangandek ko‘rinadi. Ushbu murakkablikning qay darajada aks ettirilganligini tuyg‘u va idrok orasidagi aloqa uzviyligi ta’minlaydi. Shuningdek, unda ijodkor tomonidan estetik obyektga yuklatilgan g‘oyaning mazmundorligi yetakchi mavqe kasb etadi.

Kuzatiladiki, she’riyatda adabiy tafakkur kategoriyasi sifatida nutq tiplari uslub va vazifa jiplashuvini ta’minlaydi. Muallif, matn va kitobxon o‘zaro aloqasi chuqur idrokni taqozo etadi. Badiiy matnni idrok etishda xususiylikdan umumiylikka ko‘chish usuli qulayligi qadriyaviy mezonlarni asosiy o‘ringa olib chiqadi. Mazkur jarayonda lirik subyekt tomonidan ilgari surilgan badiiy g‘oya o‘zga (o‘quvchi) tomonidan to‘liq o‘zlashtirilgani holda ma’no mohiyati va aniqligi ikki tomonni birlashtirishga xizmat qiladi. Ayni murojaat shaklida muallif va kitobxon manfaatlari uyg‘unlashgan holda poetik idrok hamda adabiy zavq sintezi masalani yanada konkretlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References).

1. Болтабоев Х. XX аср адабиётшунослигида диалогизм ва Михаил Бахтиннинг адабий-эстетик таълимоти // Филология масалалари. – Т., 2016, – № 4.
2. Воҳидов Э. Асарлар. Ёз харорати. – Т.: Шарқ, 2015.
3. Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2016.
4. Орипов А. Танланган асарлар. II жилд. – Т.: Ғ.Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.
5. Раҳматов М. Поэтик нутқ: структура ва семантика. – Т.: Bookmany print, 2023.
6. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Т.: Фан, 2007.
7. Пардаева З. Ўзбек романи поэтикаси. Монография. – Т.: Мерос, 2003.
8. Поляков М.Я. Вопросы поэтики и художественной семантики. – М.: Советский писатель, 1986.
9. Саримсоқов Б. Алишер Навоий лирикасида ғазал-мулоқот шакллари // Ўзбек тили ва адабиёти, . – Т., 2004, - № 4.
10. Солижонов Й. Диалог ва унинг қурилиши // Кўзгудаги ҳаёт. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013.
11. Қозихўжаев А. Ғазалнинг серовоз олами // Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси, 2009. – № 49.
12. Қуронов Д. Талқин имконлари. –Т.: Turon zamin ziyo, 2015.